NOAN'ANAVIY AMALIY SAN'AT BEZAKLARINING ME'MORIY INSHOATLAR BILAN UYG'UNLASHUVI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i04.041

Mohinabonu Erkinova
Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI

Annotatsiya: Mazkur maqolada amaliy san'atning muhim yo'nalishlari - keramika va oynasozlikning zamonaviy hamda tarixiy arxitektura obyektlarida qo'llanilishi tahlil etiladi. Ishda keramika san'atining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va uning bezak vositasi sifatida me'morchilikdagi o'rni qisqacha yoritilgan. Shuningdek, maqolada Toshkent shahridagi muhim me'moriy inshootlarda keramika va oynasozlik elementlarining uyg'unlashuvi misollar asosida ko'rib chiqiladi. Jumladan, Toshkent davlat sirk binosida keramika bezaklarining badiiy va funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Oynasozlik san'atining arxitekturadagi ifodasi esa "Alisher Navoiy", "Kosmonavtlar", "Paxtakor" metro bekatlari hamda O'zbekiston Davlat san'at muzeyi binosi misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, keramika, oynasozlik, me'morchilik, bezak san'ati, arxitektura, Toshkent, metro bekatlari, badiiy uyg'unlik, dizayn

THE INTEGRATION OF NON-TRADITIONAL APPLIED ART DECORATIONS WITH ARCHITECTURAL STRUCTURES

Mokhinabonu Erkinova
NIFAD named after Kamoliddin Bekhzod

Abstract: This article analyzes the application of important branches of applied art-ceramics and glassmaking-in both modern and historical architectural structures. It briefly outlines the origins of ceramic art, its stages of development, and its role in architecture as a decorative medium. Additionally, the article examines, through specific examples, the harmonious integration of ceramic and glassmaking elements in significant architectural buildings in the city of Tashkent. In particular, it analyzes the artistic and functional significance of ceramic decorations in the Tashkent State Circus building. The expression of glassmaking art in architecture is demonstrated through the examples of the "Alisher Navoi," "Kosmonavtlar," and "Paxtakor" metro stations, as well as the building of the State Museum of Arts of Uzbekistan.

Keywords: applied art, ceramics, glassmaking, architecture, decorative art, Tashkent, metro stations, artistic harmony, design

(cc) BY

Xalq amaliy bezak san’ati insonning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Ma’lumki, mavjud barcha san’at turlari o‘z o‘quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabiniga o‘tkaziladigan badiiy, ruhiy ta’sir orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o‘rinda amaliy san’at turlarining fazilatlari ham o‘ziga xos bo‘lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Kulolchilik - qora loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san’atidir. Bu qora loy saxovat, halollik, ezgulik timsollidir.

Arxitektura - badiiy keramika - bu binolar va inshootlarning dekorativ va san’atiy bezak elementlarini yaratishda ishlatiladigan keramika turi bo‘lib, u amaliy qurilish materiali sifatida ham qo‘llaniladi. Bu material nafaqat funksional, balki estetik rolni ham bajaradi: fasad, interyer, ustunlar, mozaika panellar, ornamentlar va boshqa bezaklar orqali binoning tashqi va ichki ko‘rinishini bezaydi. Turli keramika shakllari, panellar va bo‘rtma bezaklar yordamida me’moriy kompozitsiyalar yaratiladi, ularning rang - tusi va teksturasi binoga o‘ziga xos badiiy ifoda bag‘ishlaydi. Keramika juda qadimdan insoniyat tarixida mavjud bo‘lib, dastlab oddiy amaliy buyumlar va sopol idishlar sifatida ishlatilgan. Keyinchalik bu san’at arxitektura bezagida keng qo‘llanila boshlagan - devor panellari, bezak naqshlar, klemalar orqali me’moriy g‘oyalarning ramziy ifodasiga aylanadi. Keramikaning bu roli, xususan Markaziy Osiyo va O‘zbekiston shaharlarining qadimiy yodgorliklarida yaqqol namoyon bo‘ladi - masalan, Samarqand, Buxoro va Xiva me’moriy ansambllarining sopol panellari va naqshlari orqali.

Arxitekturaviy keramika bezaklari odatda quyidagi elementlardan iborat bo‘ladi: ornamental naqshlar - geometrik, floral yoki ramziy bezaklar, milliy uslubga xos motiflar, bo‘rtma panellar - chuqur hajmli san’atiy kompozitsiyalar, dekorativ ranglar - maxsus glazuralar orqali rang - tuslar va yaltirash effektlari yaratiladi, estetik makon yaratish - binolarga zamonaviy va milliy estetik identifikatsiya beradi.

Bu keramika turi san’atiy ifodaning kuchli vositasi bo‘lib, binolarning tashqi ko‘rinishida madaniy, tarixiy va badiiy mazmunni kuchaytiradi. Arxitektura - badiiy keramika mahsulotlari odatda maxsus gil, mineral qo‘shimchalar va bo‘yoqlar asosida tayyorlanadi. Ular yuqori haroratda pishiriladi, shuning uchun juda mustahkam bo‘ladi va tashqi muhit sharoitlariga chidamlidir - ob - havo, uy nurlanishi, namlik kabi omillarga qarshi barqarordir. Turli tekstura va rang effektlarini yaratish uchun glazura va maxsus pishirish rejimlari qo‘llanadi. Arxitektura - badiiy keramika nafaqat texnik, balki madaniy va san’atiy ahamiyatga ham ega. U binoning fasadida joylashgan milliy ornamentlar orqali an’anaviy san’at elementlarini zamonaviy makonga olib kiradi. Shu tariqa, keramika san’ati me’moriy yodgorliklarga o‘zbek milliy estetikasini ifodalovchi badiiy tilni beradi.

Sopolsozlik qadimiy bo‘lib, xalq ustalari uni asrlar davomida o‘z mahoratlari bilan rivojlantirib kelmoqdalar. Bugungi kunda sopolsozlik san’ati asosida yasalgan

(cc) BY

turli xildagi buyumlarga yangidan jilo berilmoqda. Bu san’at va xo‘jalik buyumlari bilan bir qatorda tarixiy obidalar, zamonaviy uy - joylar, inshootlar, xiyobonlarga chiroy baxsh etmoqda. Endilikda sopolsozlik san’ati birinchi bor metro stansiyalari pardozidaham qo‘llanila boshlandi. Keramika - metro bezaklarida keng qo‘llangan chidamli material hisoblanadi. U devor yuzalari, ustunlar, medalyonlar va mozaikalar shaklida dekorativ element sifatida ishlatilgan. Bu bezaklar ko‘pincha milliy, tarixiy yoki mavzuli tasvirlarni ifodalagan. Metropoliten bekatlarining vazifasi nafaqat yo‘lovchilarni tashish, balki ularni san’at orqali ijtimoiy va madaniy xabar bilan boyitish bo‘lgan. 1960 - 1980 - yillar Sovet Ittifoqi hududida metropoliten arxitekturasining yangi bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa, 1977 - yilda ishga tushirilgan Toshkent metropoliteni Markaziy Osiyoda birinchi metro tizimi sifatida nafaqat muhandislik yechimi, balki monumental - dekorativ san’at namunasi sifatida ham e’tirof etiladi. Ushbu davrda qurilgan metro bekatlarining badiiy bezagida keramika muhim dekorativ materiallardan biri sifatida keng qo‘llanilgan. Jumladan, Toshkent metropolitenining «Oybek», va «Toshkent» stansiyalariga kirib kelgan har bir kishi o‘zini ko‘rkam qasrga kirib qolgandek his etadi. «Oybek» stansiya ustunlaridagi kulolchilik namunalarida milliylik, tarixiylik va zamonaviylik aks etgan. Ornamentlaridagi bo‘rtma naqshlar va bo‘yoqlarning go‘zalligi mahalliy kulolchilikning sopolsozlik san’ati tarixini, uning barcha sir - asrorlarini puxta o‘rganib olganligidan dalolat beradi. «Toshkent» stansiyasiga o‘rnatilgan panno va bezaklarda Sharqning mash’ali bo‘lgan shahrimizning chinakam do‘stlik qo‘rg‘oni ekanligi, uning gullab - yashnayotgan qiyofasi aks ettirilgan. 1960 - 1980 - yillarda Toshkent metropoliteni stansiyalarida qo‘llanilgan sopolsozlik san’ati xalq amaliy bezak san’atining zamonaviy muhitga moslashgan shakli sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu bezaklar milliy o‘zlikni saqlagan holda, sovet davri monumental san’ati talablari bilan uyg‘unlashdi. Natijada metropoliten nafaqat transport inshooti, balki yuksak badiiy - estetik ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy makonga aylandi.

Keramika nafaqat metropolitenlarda balki yirik inshoatlarni bezashda ham keng qollanilganligini aytib o‘tish lozim. Bunga namuna sifatida esa Toshkent davlat sirk binosini keltirish mumkin. Bino 1970 - 1976 yillarda qurilgan bo‘lib, bu davr Sovet modernizmi arxitekturasi va lokal madaniy motivlarning noyob uyg‘unligi hisoblanadi. Arxitektori - G. Aleksandrovich va G. Masyagin. Binoning shakli aylanaviy, katta gumbazli bo‘lib, uzoqdan “uchib kelayotgan kosmik narsa” (UFO) yoki katta “piala” (uzbek choy piyolasi)ga o‘xshash ko‘rinadi. Gumbaz diametri taxminan 77 m, ichida 3 000 tomoshabin sig‘adi. Binoning konstruktiv yechimi zilzilaga chidamli bo‘lishi uchun po‘lat va armatura betondan foydalanilgan. Tashqi fasadlarda geometrik “panjara” shablonga o‘xshash bezak ishlatilgan - bu an’anaviy uzbek “panjara” (nafosatli panjali chiroqlar)ga ishora qiladi. Bu dizayn elementi binoning zamonaviy shaklini yengillashtiradi va uni mahalliy dekorativ an’analar bilan bog‘laydi. Binoning

(cc) BY

ichki qismida stained glass (rangli shisha), keramika mozaikalari, ganch va yog‘och o‘ymakorlik kabi bezaklar joy olgan. Bu elementlar sirk san’ati hamda milliy dekorativ san’at an’analarini aks ettiradi. Asosiy kirishlar atrofida va auditoriya ichida geometric keramika va rangli vitrajlar orqali faslli bezaklar ishlatilgan. Keramika va mozaik bezaklar jarayonda tashqi va ichki makonlarda keng qo‘llanadi. Binoning ichidagi marmar, keramika mozaikalari va geometrik fayanslar libre dizayn elementini yaratadi, bu esa an’anaviy kulolchilik motivlariga asoslangan bezaklar bilan uyg‘unlashadi. Bu keramika ishlari bevosita mahalliy san’at va sopolsozlik dekorativ an’analaridan ilhom olgan bo‘lishi mumkin, chunki markaziy Osiyo arxitekturasida keramik naqshlar va rangli plitkalar ko‘p uchraydi. Tashqi aspektda katta gumbaz - sirk uyg‘unligining markazi bo‘lib, uning ko‘rinishi an’anaviy sharq kupolining modern talqini bilan uyg‘unlashgan. Gumbazning tashqi ko‘rinishi juda dramatik bo‘lib, u ham kosmik futurizm elementlarini, ham Sharq ornamentik ifodalarini birlashtiradi. Bu bino Sovet davrining modern arxitekturasi doirasida tributing (yangi texnologiya va progress ramzi) bo‘lish bilan birga, mahalliy dekorativ an’analarga ishora qiladigan naqsh va materiallar bilan boyitilgan. Ichki va tashqi dekorativ elementlar orqali binoda milliy sobitlik va zamonaviy dizayn uyg‘unligi his qilinadi - bu arxitekturaning global Sovet modernizmi va Markaziy Osiyo madaniyatini birlashtiruvchi o‘ziga xos falsafasi.

O‘yma zamini ko‘zgudan tashkil etgan ganch o‘ymakorligining oynasozlik turini XIX asrda Buxorolik Usta Shirin Murodov yaratgan. U birinchi bo‘lib Buxoro xoni Abdaxonnning “Sitorai Moxi - Xosa” yozgi saroyidagi “oq uy” (xonai safed)ni bezashda qo‘llagan. U yerdagi zamini bo‘lgan ko‘zguli o‘yma ganch ajoyib nafis ko‘rinishga ega. 1975 - 1977 yillar davomida talentli shogirdlar tayyorladilar va 1977 yili ular ijodiy uyushma tashkil etdilar. Usta Shirin Murodov kashf etgan “oyna pardoz” uslubini rivojlantirishni Ziyovutdin Yusupov bilan Umarjon Tohirov bundan ham murakkab go‘zallik yaratish va Usta Shirin Murodov izidan borishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Chunki mashhur Usta Shirin Murodovning Buxorodagi Sitorai Mohi - Xosaga ishlagan bezaklari ularga katta ta’sir etdi. Ular o‘sha vaqtda erishgan yutuqlarga ko‘nikmaslik, o‘z ishiga tanqidiy qarashni oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar. Masalan, o‘sha vaqtda ular ustalardagi katta yuzaga bir xil nusxa ishlatish, o‘ymaning chuqurligini oshirib yuborish kabi kamchiliklarni payqab bunday uslubdan yiroq yurishga harakat qilganlar, rang - barang murakkab, yangi uslublarni qo‘llashga intilishgan. Umarjon Tohirov va Ziyovutdin Yusupovlar yuzaga bir xil bosh nusxa qo‘llash kishini zeriktirib qo‘yishi, naqshlarni chuqur uishda tezda chang to‘lib qolishini bilib, ular ko‘p rejalangan burtma uslubini qo‘lladilar. Keyinchalik esa toshoynalar bilan mos holda rangli oynalarni qo‘llashni kashf etdilar. Ustalar mustaqil ravishda bir - birini takrorlamaydigan bezaklar bajarishga kirishdilar.

1966 - yilda yuz bergan kuchli zilziladan so‘ng shahar hududi deyarli qaytadan qurilgan. Zilzila natijasida vayron bo‘lgan eski shahar qismlari o‘rnida zamonaviy

(cc) BY

qurilish uslublari asosida yangi Toshkent shakllana boshladi. Aynan shu jarayonda sanoatlashtirilgan qurilish, temir - beton konstruksiyalar va katta hajmli oynasoz yechimlar keng qo‘llanildi. Oynasozlik bu davrda nafaqat qurilish materiali sifatida, balki zamonaviylik, ochiqlik va taraqqiyot ramzi sifatida qaraldi. Jamoat va ma’muriy binolarda oynaning keng qo‘llanishi shahar qiyofasini yangicha, yengil va monumental ko‘rinishda ifodalashga xizmat qildi. Arxitektura nuqtayi nazaridan oynasozlik binolarning fasad va interyerlarida oyna materialidan konstruktiv va dekorativ foydalanish jarayonini anglatadi. 1960 - 1980 - yillarda Toshkent memorchiligida oynasozlik yorug‘lik, makon va vizual ta’sirni boshqaruvchi muhim vositaga aylandi. Bu davr arxitekturasida oyna faqatgina deraza elementi sifatida emas, balki butun fasadni shakllantiruvchi asosiy kompozitsion unsur sifatida qo‘llanildi. Ayniqsa jamoat binolarida katta formatli oynasoz fasadlar keng tarqaldi. Panoramali oynalar va devor o‘rnini bosuvchi shisha yuzalar binolarning tashqi ko‘rinishiga yengillik bag‘ishlab, ichki makonni tashqi muhit bilan uzviy bog‘ladi. Bunday yechimlar tabiiy yorug‘likdan maksimal darajada foydalanish imkonini berdi hamda interyer makonlarini ochiq va keng ko‘rsatdi. Toshkentning issiq iqlim sharoiti oynasozlik masalasiga alohida yondashuvni talab qilgan. Shu sababli 1960 - 1980 - yillar arxitekturasida oynasoz fasadlar ko‘pincha quyoshdan himoya qiluvchi panjaralar bilan uyg‘un holda qo‘llanildi. Beton, metall yoki keramika materiallaridan ishlangan bu panjaralar oyna oldiga joylashtirilib, quyosh nurlarini to‘g‘ridan - to‘g‘ri ichki makonga tushishidan saqlagan. Eng muhim jihati shundaki, ushbu panjaralar ko‘pincha milliy geometrik ornamentlar asosida bezatilgan. Natijada oynasozlik faqat funksional yechim bo‘lib qolmasdan, dekorativ va badiiy ahamiyat kasb etdi. Nur va soya o‘yinlari orqali fasadlarda o‘ziga xos ritm va bezak hosil bo‘lib, bu holat Toshkent modernizmining eng muhim belgilaridan biriga aylandi. Mazkur davrda rangli oynalar va vitraj san’ati ham keng qo‘llanilgan. Rangli shisha va vitrajlar asosan madaniyat saroylari, teatrlar, ko‘rgazma zallari hamda metro bekatlari interyerlarida uchraydi. Ushbu vitrajlar ko‘pincha g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lib, mehnat, fan, madaniyat va taraqqiyot mavzularini aks ettirgan. Ba’zi hollarda esa abstrakt shakllar yoki milliy naqshlardan ilhomlangan kompozitsiyalar ishlatilgan. Rangli oynalar ichki makonlarga tantanavorlik, rang - baranglik va badiiy ifoda bag‘ishlagan. Oynasozlik faqat tashqi fasadlar bilan cheklanib qolmagan, balki interyer makonlarida ham faol qo‘llanilgan. Zinapoyalar, foye qismlari, keng zal va yo‘laklarda devor oynalari, shiftga yaqin joylashtirilgan oynasoz lentalar yordamida ichki makonlar yanada yorug‘ va keng ko‘rinishga ega bo‘lgan. Bunday yechimlar makonni vizual kattalashtirib, monumental ichki muhit yaratishga xizmat qilgan. Oyna orqali yorug‘likning ichki makonda erkin tarqalishi arxitektura kompozitsiyasining muhim qismiga aylangan. 1960 - 1980 - yillar Toshkent memorchiligida oynasozlikning estetik va funksional ahamiyati juda katta bo‘lgan. Estetik jihatdan oyna zamonaviylik, shaffoflik va yengillik timsoli sifatida

(cc) BY

qabul qilingan bo‘lsa, funksional jihatdan tabiiy yorug‘likdan samarali foydalanish, iqlim sharoitiga moslashish va ichki makon qulayligini ta’minlashga xizmat qilgan. Oynasoz fasadlar quyoshdan himoya panjaralari bilan birgalikda ishlatilgani tufayli energiya tejamkorlik masalasi ham o‘sha davr talqinida hal etilgan. Muhim jihatlardan biri shundaki, Toshkent memorchiligida oynasozlik sof Yevropa modernizmi yo‘nalishida qolib ketmagan. Aksincha, u Sharqona bezak tafakkuri va milliy ornamentlar bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu holat sovet modernizmini mahalliylashtirish, shahar qiyofasini o‘ziga xos va betakror qilishga xizmat qilgan. Natijada Toshkent arxitekturasi o‘z davrida zamonaviy texnologiyalar va milliy estetikani birlashtirgan noyob tajriba maydoniga aylangan.

Toshkent metropoliteni bekatlari ham oynasozlikning muhim namunalari hisoblanadi. Ko‘plab bekatlarda rangli oynalar va vitrajlar interyer bezagining ajralmas qismiga aylangan. Bu oynalar bekatlarning yer osti makonini yorug‘ va badiiy jihatdan boy qilishga xizmat qilgan. Vitrajlarda milliy naqshlar, tarixiy va mavzuli kompozitsiyalar qo‘llanilib, ular orqali milliy madaniyat va zamonaviy arxitektura uyg‘unligi ta’minlangan. Metro bekatlarida oynasozlik nafaqat bezak, balki psixologik qulaylikni oshiruvchi muhim omil sifatida ham xizmat qilgan. “Paxtakor” (1977) metro bekati Toshkent metropolitenidagi oynasozlik va vitraj san’ati eng yorqin namoyon bo‘lgan bekatlardan biridir. Bekat interyerida rangli oynalar va vitraj panellar keng qo‘llanilgan. Ushbu vitrajlarda paxtachilik, mehnat va qishloq xo‘jaligi mavzulari ramziy tarzda tasvirlangan. Rangli oynalar yer osti makonida yorug‘lik va rang muvozanatini yaratib, bekatga tantanavor va badiiy ruh bag‘ishlaydi. Bu yerda oynasozlik faqat bezak emas, balki mafkuraviy va estetik g‘oyalarni yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qilgan.

“Alisher Navoiy” (1977) metro bekati milliy bezak va oynasozlik uyg‘unlashgan noyob inshootlardan biridir. Bekat interyerida rangli oynalar, yoritilgan vitraj elementlari va shaffof shisha bezaklar ishlatilgan. Ushbu oynalar Sharqona ornamentlar va milliy motivlar bilan uyg‘unlashtirilgan. Vitraj va oynasoz elementlar bekatning ma’rifiy va estetik ahamiyatini oshirib, Alisher Navoiy siymosi va adabiy merosiga ramziy ishoralar beradi. Bu bekatda oynasozlik milliy madaniyatni zamonaviy arxitektura orqali ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Kosmonavtlar” metro bekati 1980 - yillar oynasozligining texnologik va badiiy imkoniyatlarini yaqqol ko‘rsatadi. Bekatda rangli oynalar va shisha yoritish elementlari kosmik mavzuga mos ravishda ishlatilgan. Oynalar orqali yaratilgan ko‘k va binafsha rang ohanglar kosmos, ilm - fan va texnologiya g‘oyalarini ifodalaydi. Bu bekatda oynasozlik yer osti makoniga futuristik kayfiyat bag‘ishlab, sovet davrining ilmiy - texnik taraqqiyotga bo‘lgan ishonchini badiiy shaklda aks ettiradi.

O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi binosi 1960 - 1970 - yillar Toshkent modernistik memorchiligining muhim namunasidir. Ushbu inshoot 1974 - yilda

(cc) BY

qurilgan bo‘lib, loyiha mualliflari sifatida arxitektorlar I. Merport va A. Nikiforov ko‘rsatiladi. Bino sovet modernizmi tamoyillari asosida barpo etilgan bo‘lib, unda oynasozlik binoning umumiy badiiy - kompozitsion yechimida muhim o‘rin egallaydi. Muzey binosi tashqi ko‘rinishida masshtabli, aniq geometrik shakllar ustun bo‘lsa - da, aynan oynasoz elementlar bu monumentallikka yengillik va ochiqlik bag‘ishlaydi. Binoning fasadlarida oynasozlik asosan keng formatli derazalar va oynasoz lentalar ko‘rinishida qo‘llanilgan. Ushbu oynasoz yechimlar muzey ichki makonlarini tabiiy yorug‘lik bilan ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, san’at asarlarini ko‘rish uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilgan. Oyna orqali tushadigan diffuz yorug‘lik ekspozitsiya zallarida vizual qulaylikni oshirib, ichki makonning sokin va muvozanatli ruhini ta’minlaydi O‘zbekiston Davlat san’at muzeyida oynasozlik masalasiga funksional jihatdan juda ehtiyotkorona yondashilgan. San’at asarlarini to‘g‘ridan - to‘g‘ri quyosh nurlaridan himoyalash zarurati tufayli oynasoz fasadlar ko‘pincha chuqur joylashtirilgan deraza o‘rinlari, shuningdek beton konstruksiyalar bilan himoyalangan. Bu usul orqali oynasozlik nafaqat yorug‘lik manbai, balki iqlimiy va ekspozitsion talablarni muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Muzey interyerlarida ham oynasozlik muhim rol o‘ynaydi. Foye va umumiy yo‘laklarda yuqori qismga joylashtirilgan oynasoz elementlar ichki makonning vertikal yo‘nalishini kuchaytirib, makonni vizual jihatdan kengroq va balandroq qilib ko‘rsatadi. Oyna yordamida yaratilgan yorug‘ muhit tomoshabinning diqqatini devor va shift bezaklaridan ko‘ra san’at asarlariga qaratishga xizmat qiladi. Bu esa muzey funksiyasiga to‘liq mos keladigan arxitektura yechimi hisoblanadi. O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi oynasozligining yana bir muhim jihati - uning bezaksiz, soddalashtirilgan shaklda qo‘llanilishidir. Bu yerda oyna dekorativ bezak sifatida emas, balki arxitekturaning mantiqiy va funksional elementi sifatida ishlatilgan. Aynan shu holat muzey binosini sovet modernizmining qat’iy, intizomli va intellektual ruhini aks ettiruvchi inshoot sifatida namoyon etadi. Mazkur bino Toshkentdagi boshqa jamoat inshootlari bilan qiyoslanganda, unda oynasozlik kamroq dekorativ, ammo chuqurroq ma’noga ega ekani ko‘zga tashlanadi. Agar madaniyat saroylari va metro bekatlarida oynasozlik ko‘proq badiiy va ramziy vazifani bajargan bo‘lsa, O‘zbekiston Davlat san’at muzeyida u san’atni idrok etish jarayonini qo‘llab - quvvatlovchi muhit yaratuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Toshkent arxitekturasidagi amaliy san’at bezaklari nafaqat estetik qiymatga ega, balki me’moriy inshootlarning madaniy va tarixiy merosini saqlashga xizmat qilgan. Bu bezaklar arxitektura shakllari va uslublari bilan uyg‘unlashib, Toshkentning o‘ziga xos me’moriy obrazini yaratishda muhim rol o‘ynagan. Ushbu tadqiqot, Toshkent arxitekturasining o‘ziga xosligini va uning tarixiy o‘zgarishlarini yanada chuqurroq o‘rganishga yo‘l ochib beradi. Kelgusida arxitektura va amaliy san’atning

(cc) BY

birlashishidagi yangi yondoshuvlar hamda ularning zamonaviy me’moriy dizayndagi ahamiyatini o‘rganish zaruriyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аскаров Ш. Генезис архитектура Узбекистана

2. Jabborov B. O‘zbekiston me’morchiligida bezak san’ati. Toshkent: San’at, 1978.

3. Хакимов А. Искусство Узбекистана: история и современность. - Ташкент: Санъат, 2010. - с. 9.

4. Shodmonov A. Modernizm va milliylik uyg‘unligi masalalari. Toshkent: Oliy ta’lim, 1985.

5. Сейсмический модернизм Архитектура и домостроение советского Ташкента Филипп Мойзер

(cc) BY